

**CHINGIZ AYTMATOV "OQ KEMA ASARI"NI BADIY ADABIYOTGA
BOLALIK TIMSOLI SIFATIDA NAMOYISH ETISHI**

Musulmonov Shabon Bahodir O'g'li

Termiz Davlat Universiteti, Filalogiya va tillarni o'qitish

(Ingiliz tili) yo'nalishi, 4-kurs talabasi

Husniddin Suvonov

Termiz Davlat Universiteti, Adabiyotshunoslik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqola Aytmatovning "Oq kema" asarining badiiy adabiyotga bolalik timsoli sifatida qanday namoyish etildigini tushuntiradi. Maqolada Aytmatovning adabiy mahorati, uning asarlarining dunyoqarash, insoniy munosabatlar va tabiatning tasvirlarini o'z ichiga olganligi ta'kidlanadi. "Oq kema" asarining badiiy xususiyatlari, uning jamiyat va insoniy munosabatlarga tegishli mazmunlari tahlil qilinadi. Maqolada Aytmatovning adabiy oqibatini tushuntirish, uning adabiyotdagi o'rnini ko'rsatish, va asarlarining insoniyatga tegishli muhim mavzularini ko'rsatishga e'tibor beriladi. Maqola "Oq kema" asarining adabiyotga bolalik timsoli sifatida ahamiyatini belgilab, Aytmatovning badiiy dunyosini o'rganish va uning adabiyotdagi o'rnini ta'kidlash maqsadida yozilgan.

Kalit so'zlar: adabiy xususiyatlar, badiiy adabiyotga bolalik timsoli, bolalik timsol, bolalik asar, bolalik adabiyot, bolalik e'tirof, bolalik madaniyat

Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asari badiiy adabiyotga bolalik timsoli sifatida namoyish etilishi, uning turli yodgorlik va ma'naviy timsollari orqali yoritiladi. Aytmatovning o'z davri jamiyatining muammolarini, insoniy munosabatlarni, va tabiatning kuchlarini badiiy va g'oyaviy uslub bilan aks ettirishining muhimligi ta'kidlanadi. Uning qissalari uning badiiy mahoratini, dunyoqarashini, va o'z garmalarini o'rgatish usuli bilan birga badiiy adabiyotga qo'yilgan ta'siri kuzatib boradi. "Oq kema" asarining o'zida yashaydigan muhim xarakterlar, ularning o'zaro munosabatlari, va asarning asosiy mazmunlari tahlil qilinadi. Bular orqali, Aytmatovning badiiy dunyosiga kiritish, uning adabiyotdagi o'rniga e'tibor qaratish, va uning asarlarining insoniyatga tegishli mazmunlarini o'rganish imkoniyati yuzaga keltiriladi.

Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asari badiiy adabiyotga bolalik timsoli sifatida namoyish etilishi, uning o'zining dunyoqarashini, insoniy munosabatlarini va tabiatning kuchlarini badiiy va g'oyaviy uslubda ko'rsatishi bilan bog'liqdir. Bu esseyda, Aytmatovning qissalari va romanlari ustida tahlil qilish orqali, uning o'zining adiblik xususiyatlarini, shaxsiy tilaklarini va adabiy oqimini tushuntirish mumkin. Shuningdek, Aytmatovning asarlarining madaniy, ma'naviy, va estetik qiyofalarini

e'tirof etish, uning adabiyotda o'zining o'rnini ta'kidlash ham muhimdir. Bu esa "Oq kema"ning badiiy adabiyotga bolalik timsoli sifatida ahamiyatini va o'zining asarlarining insoniyatga tegishli mazmunlarini o'rganishga yordam beradi.

Insonni tug'ish va o'stirish qanchalar qiyin, o'ldirish esa oson". Ch.Aytmatovning "Oq kema"asari samimiyligi bilan kitobxon e'tiborini jalb qiladi. Bu qissada insoniy go'zallik, ezgulik va hayot ziddiyatlari, ekologiya muammolari teran tadqiq etiladi. Bu asarda bir bolaning o'y-xayollari, otasiga bo'lgan sog'inchi, uning baliqqa aylanib qolishini istashi-yu, Oq kemaga-otasining huzuriga borib uni kirishga bo'lgan ishtiyoq kabilar bayon etiladi. "Oq kema" asarida bolaning o'y-fikrlari shunchalik hissiyotga boy tarzda tasvirlanadiki, go'yo o'zimizni o'sha vaziyatga tushib qolganday his etamiz. Bu asar zamirida chuqur ma'no mujassam. Qissada oila masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Misol uchun, bolaning yolg'izligi, o'z otasiga sog'inchi, O'rozqulning farzandsizligi, Mo'min cho'l iztiroblari. Oq kema asaridagi obrazlar timsolini xuddi hayotda bo'lgan va bo'layotgan inson haqiqatlariga qiyoslayman. Bola beg'ubor qalbg'a o'xshaydi. U yomonliklarni va qabihlikni ko'rsa nafratlanadi, kirlanadi, o'lib boradi. Masalan, bolaga Shoxdor ona bug'u haqida rivoyat aytib, o'zlarining bosh bo'g'ini deya ishontirib, og'ir vaziyatlarda qabiladoshlarini faqat Ona bug'ugina asray oladi, deya ta'kidlagan Mo'min chol o'z qarashlariga qarshi chiqib Ona bug'uni ovlab, ziyofat qilayotganidagi Bolaning ahvolini tasavvur qiling. Naqadar dahshatli manzara!.. Endi asardagi ramzlarga e'tiborimizni qaratsak, Oq kema - to'kislik, diydor ramzi. Bolaning o'ylashicha, Oq kemada dadasi kapitan, matros bo'lib ishlaydi. Shuning uchun bola baliqqa aylanib, Oq kemaga borishni xayol qilardi. Mo'min chol -mehnatkash, aqlli inson tanasi. Unda oliyjanob fazilatlar mavjud, biroq har doim ham to'g'ri yo'ldan yura olmaydi. Bunga sabab esa qizining farzandsizligi. Bola qalbi naqadar beg'ubor, samimiy bo'ladi, eng muhimi bola hech qachon aldamaydi.

Chingiz Aytmatovning bu qissasi Issiqko'l bo'yida yashovchi 7 yoshli yetim Bolaning sof qalbi, olami, sodda dunyoqarashim va haqiqatgo'yiligi haqida hikoya qiladi. Bola o'z olamida yashardi, uni hech kimga ziyoni yetmasdi. U bobosi Mo'min cholning samimiy ertaklariga ishonardi. Bobosi aytib bergan Shoxdor Ona bug'u haqidagi ertakni o'z hayotiga bog'liq holda tasavvur etardi. Hayot qizig'-a?! Kimlardir tirnoqqa zo'r, ayrim kimsalar esa farzand deb atalmish ne'matning qadriga yetmay, undan voz kechadilar. Bu ikki qarama-qarshilik asarda yonma-yon tasvirlangan. Boboning to'ng'ich qizi necha yillardan buying farzandsizlikdan aziyat chekayotgan bo'lsa, kichik qizi o'z ko'z-qorachig'idan voz kechib bolasini tashlab ketadi. Eng qizig'i, bunday insonlar hayotda ham uchraydi.

Asarda Bolaning ismi ham keltirilmagan, ammo bola obrazi xolisona tasvirlangan. Bola qanchalar muloyim va sodda bo'lganini his qilsak bo'ladi. Balki ota-onasiz o'sganligi uchun shunday bo'lgandir. Uning yolg'iz bobosi

Mo'min cholgagina muhabbati, mehri bor edi. Boshqa bolalar tengdoshkari bilan o'ynasa, suhbatlashsa bizning qahramonimiz esa portfel va durbinni o'ziga suhbatdosh deb bilardi. Sirlarini ularga aytar, bu buyumlarni atrofidagi insonlardan yaxshi deb bilardi. Hattoki, Seydahmad ustimdan kulganda ham bola portfel bilan ovunib, portfel bilan suhbatlashadi. Eng yaqin do'sti esa shiroljinlar edi. Bolaning yig'lagisi kelsa o'sha daraxt tagiga borib yig'lardi. Bolaning supurgio'tlarga rahmi kelardi. U uchun eng quvnoq gular bu-pechakgullar. Eng birinchi dushmani esa chaqirtikanak. Ko'ryapsizmi, bola dunyosining naqadar samimiyligini. Bu asarni o'qigan saying zavqing oshib boraveradi. Bobosini juda hurmat qilardi. Lekin bu munosabat oxirigacha bormadi. Asardagi Mo'min chol obrazini "ikki o't orasida qolgan obraz" deyish mumkin. U nabirasini butub borlig'i bilan yaxshi ko'radi, ardoqlaydi.

Shu bilan birga qizining baxtsiz bo'lib qolishidan qo'rqadi, uning azob chekishini xohlamasdi. Shu sababli Mo'min chol bug'uni o'ldirishga majbur bo'ladi. Balki shu bilan qizining baxtsizligiga barham bermoqchi bo'lgandir. Asarning eng ta'sirli nuqtasi bu bug'uning nobud bo'lgani va bolaning by dunyoda hech kimga ishonchi qolmagani edi. Uning oxirgi umidi sinadi, ya'ni bobosining ham bu ishda qo'li borlig'i bo'lami bu muhitni tark etishga undaydi. Qaysidir ma'noda bola orzusiga erishmoqchi bo'ladi. U baliqqa aylanib qolmoqchi, bu chirkin manzaradan uzoqqa, o'zining oppoq Oq kemasi yoniga ketmoqchi bo'ladi. Lekin afsuski, hayot bunday beg'ubor bolaning orzusini ro'yobga chiqarishga ojizlik qildi. Uni abadiy yo'qlikka olib ketdi..... Bola dunyoqarashi kattalar olamidan keskin farq qiladi. Bolalar dunyoni boshqacha ko'z bilan ko'rishadi. Kattalar dunyoda ko'rib yurganlaridan kelib chiqib fikrlasa, bolalar o'z orzulari og'ushida fikrlaydilar. Asar qahramoni bola ham shu istaklar olamida barcha jonsiz narsalarni o'ziga jonli dardkash Deb hisoblaydi. Bolaning birgina aybi uning yetimligida edi. U bobosining mehri to'ymas edi. Mo'min cholning ertagidagi bir fikrga e'tibor qarataylik: Inson insonni urug'ini quritar ekan. Ma'noga e'tibor beraylik, bu bilan yozuvchi insonning dushmani, kushandasi bu faqat inson ekanligini Mo'min chol va O'rozqul obrazida anglatgan. Yana asarda insonlarning tabiatga shavqatsizlarcha munosabati aks ettirilgan.

Bir zamonlar odam bolasini boqib olgan, o'limdan qutqargan bug'u avlodi shavqatsizlarcha o'ldiriladi. Yana bunga butun umr bo'yi bug'uga sig'inib yurgan Mo'min chol ham majburlanadi. Nima uchun bit murg'akkina bola bo'lgan gunoh, savobni "KATTALAR" bilmaydi yoki ba'zi insonlar shunchalar adolatsiz bo'lishdimikin, nega nohaqliklar son - sanoqsiz, adolat esa faqat Parvardigor huzurida. Bu o'rinda Erkin Vohidovning she'ridan parcha keltirsam: "Qilding-u oyda xirom, har yerda qon to'kding harom, Ushbu holingdan mudom xandon o'zing, giryon o'zing"... (Erkin Vohidov) Bolalik-baxtli davr. Bola eshitgan etaklarini

hayotiga, hayotini ertakka aylantirishni orzu qilardi. U ezgulikka tashna edi, lekin uni bolaning o'gayligini bot-bot takrorlaydigan buvisidan yoki O'rozqul va Bo'key xoladan emas, balki til-zabonsiz gul-u tosh va Oq kemadan topdi. Uning jajjigina, pok qalbini qanchadan qancha O'rozqullarni bag'riga olgan dunyo sig'dirmadi. Xuddi Ekzyuperining kichkina shahzodasi kabi u ham odamlarni olamni tark etdi. 1970-yilda yozilgan mazkur asarni bugungi kundagi dolzarb mavzularning bayonidir desak, hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Chunki undagi obrazlar, insonlar atrofimizda son-sanoqsiz. Ayniqsa, O'rozquldek g'alamislar borlig'i juda achinarli. Ayolini xo'rlovchi, ichkilikka berilgan, o'z xatosidan uyalmaydigan bunday manfurlardan nafratlansak bo'ladi. Balkim shining uchun ham Alloh unga farzand ato etmagandir. Ota-onasi tashlab ketgan bolani jerkiyvermasdan unga mehr nurini ulashganida, Shirin so'z bo'lganida, balki Alloh uni farzand ne'mati bilan siylarmidi, ehtimol. Axir, Yaratgan barchamizni sinaydi. Sinov berib, sabrimizni, irodamizni qanchalar mukammalligini sinaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiyot . 7-sinf uchun darslik . / S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. - Toshkent: , 2017
2. Ona tili o'qitish metodikasi. K. Qosimov, S. Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. - T.: "NOSHIR", - 2009
3. Abdullayeva, O. O. (2021). ABAY IJODINI O'RGANISHDA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH.
4. Abdullayeva, O. O. (2021). IBROYIM YUSUPOV IJODI ASOSIDA O'QUVCHILARNING VATANPARVARLIK TUYG'ULARINI O'STIRISH.
5. Botirboyev, F. P., Abdullayeva, O. O., & Shermatova, U. S. (2021). O'LJAS SULAYMONOV IJODINI O'RGANISHDA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH.
6. Abdullayeva, O. (2021) BADIY ASARLARNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI.
7. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). O'ZBEK TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOIYALARNING O'RNI.
8. Abdullaeva O. O. K, Tadjibaeva D. SH. K, Shermatova U.S. (2021). From Interactive Methods In Mother Tongue Classes Use.
9. Abdullaeva O. O. K, Kurbanova M. F. (2021). The Role of International EGRA and EGMA Reserch in Increasing Educational Efficiency.
10. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.
11. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). OTLARNING BIRLIK VA KO'PLIKDA QO'LLANILISHINI O'RGATISH.
12. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). xalqaro tadqiqotlar va ularning adabiyot fanida tutgan o'rni.
13. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) O'lmas Umarbekov hayoti va ijodini o'rganishda interfaol metodlar bilan ishlash. Science and education.